

ISSN: 2181-1040

DOI: 10.26739/2181-1040

tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6
ISSUE 2**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 2

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 2



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFOVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Aleksandr Naymark

MINGO‘RIK BITIKTOSHI: O‘RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHIKKA OID YODGORLIGIMI?.....7

2. Nazarova Shahnozaxon

MILLIY HURRIYAT SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI.....23

3. Yusupova Dildora

“ISLOM MODERNIZMI” VA “ISLOMNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI.....36

4. Hakimov Nazar

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION
YONDASHUV.....44

5. Usarova Feruza

JADIDLAR G‘OYASINING YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANG
JIHATLARI.....52

6. Amirov Azamat

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI RAQAMLASHTIRISH
MASALALARI.....60

7. Филиппов Ольгерд

ЦИФРОВОЙ ГУМАНИЗМ КАК ПАРАДИГМА ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ.....66

8. Ashrapov Ravil

READING CULTURE IN MODERN LIFE OF UZBEKISTAN.....79

9. Muminkhujayev Abrorkhuja

INTEGRATING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY AND AI TO ENHANCE WRITING AND
SPEAKING SKILLS OF DIGITAL RESIDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS.....87

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040
www.tadqiqot.uz

Feruza Usarova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari buyicha

Muvofiqlashtiruvchi metodik markaz direktori

Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent.

E-mail: usarova.feruza@mail.ru

**JADIDLAR G'OYASINING YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN
HAMOHANG JIHATLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17418804>

ANNOTATSIYA

Maqolaning maqsadi jadidlar g'oyalarining zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqish va tahlil qilishdan iborat. Unda jadidlar harakati tarixi, ta'limni modernizatsiya qilish haqidagi g'oyalarining amaliy ahamiyati, milliy madaniyat va tilning roli, teatr san'ati hamda fuqarolik jamiyati qurilishida ishtirok etish kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: jadidlar, ma'rifat, ta'lim, modernizatsiya, islohotlar, madaniyat, jamiyat, Yangi O'zbekiston.

Feruza Usarova

Director of the Coordinating Methodological Center for the

Study of Modern History of Uzbekistan under the

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Candidate of Political Sciences, Associate Professor

E-mail: usarova.feruza@mail.ru

**THE ASPECTS OF COMMON IDEA OF JADIDS WITH THE STRATEGY OF
NEW UZBEKISTAN**

ABSTRACT

The article is a review and analysis of the influence of Jadidism on the social development of modern Uzbekistan. It examines the history of the Jadid movement, their ideas on the modernization of education, the role of national culture and language, the development of theatrical art, and participation in the construction of civil society.

Keywords: Jadids, enlightenment, education, modernization, reforms, culture, society, New Uzbekistan.

Феруза Усарова

Директор Координационного методического центра по изучению новейшей истории

Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан

Кандидат политических наук, доцент

E-mail: usarova.feruza@mail.ru

ОБЩИЕ АСПЕКТЫ ИДЕИ ДЖАДИДОВ СО СТРАТЕГИЕЙ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Статья представляет собой обзор и анализ влияния джадидизма на социальное развитие современного Узбекистана. В ней рассматривается история движения джадидов, их идеи о модернизации образования, роль национальной культуры и языка, развитие театрального искусства, участие в строительстве гражданского общества.

Ключевые слова: джадиды, просвещение, образование, модернизация, реформы, культура, общество, Новый Узбекистан.

Kirish. Tarixga nazar tashlasak, bundan bir yarim asrdan ko‘proq vaqt oldin Markaziy Osiyoda ta’lim, tarbiya, maorif va ijtimoiy madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilishga intilgan harakat paydo bo‘lgan. Bu jadidchilik harakati[1] bo‘lib, u nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro formatdagi harakat edi. XX asrning boshlarida ushbu harakat madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, O‘rta Osiyoda huquqiy demokratik davlat barpo etishni, o‘z xalqining teng huquqliligi va rivojlanish tamoyillarini himoya qilish, shuningdek, gender tenglik borasida ayollarning jamiyatdagi roli va o‘rnini oshirish va boshqa bir qator masalalarni ko‘tarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Jadidlar ilgari surgan g‘oyalarni o‘rganar ekanmiz, ularning Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama hamohang va uyg‘un ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig‘ilishida alohida urg‘u berdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, – “Davlatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘yayotgan ayni damda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan bir qatorda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosi bugun biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining poydevori bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi, yo‘qmi, xalqimiz jadid ajdodlarimiz ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har jihatdan hamohang va uyg‘undir”, – dedi Prezidentimiz [2].

Ayniqsa, yurtimizda oxirgi yillarda jadid bobolarimizning merosini o‘rganishga hamda tadqiq qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tom ma’noda jadidlar g‘oyalari yangi qarashlar bilan tiklanmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi mavzular o‘rganilmoqda, ilmiy monografiya va kitoblar chop qilinmoqda, xalqaro konferensiyalar tashkil etilib, xorij olimlar bilan hamkorlikda jadidlarning yangi va noyob g‘oyalari tahlil qilinmoqda. Masalan, Toshkent shahrida 2023-yil “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada o‘zbekistonlik hamda dunyoning o‘nlab mamlakatlaridan kelgan taniqli olimlar, tarix sohasi vakillari dolzarb ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi. Unda jadidchilik harakatini tadqiq etishdagi yangi natijalar, harakatning milliy davlatchilik shakllanishi, ma’rifat va noshirlik sohasiga qo‘shgan hissasi, ilmiy-madaniy merosi tahlil etildi [3]. Amerikalik tarixchi Adib Xalidning aytishicha, jadidlar ko‘targan ko‘plab masalalar bugungi kunda hamon dolzarbdir. Olimning fikricha, “tarixda aksariyat musulmon jamiyatlari mustamlaka qilingan. Markaziy Osiyo ulardan biri edi. O‘shanda musulmon ziyolilari nima qilmoq kerak, degan savolga javob berishga intilgan. Markaziy Osiyoda zamonaviy milliy o‘zlikni shakllantirishda jadidlar o‘ta muhim rol o‘ynagan. Va mening ilmiy ishlarimning deyarli katta qismi shu masalalarga bag‘ishlangan”. Anjumanda turkolog, Yaponiyaning Tokio universiteti professori Hisao Komatsu ilk bor Abdurauf Fitratning “Munozara” asarini juda ta’sirlanib o‘qiganini aytdi. “Keyin Fitratning faoliyati hamda boshqa yozgan asarlarini o‘qish va o‘rganishga qiziqishim ortdi. Yaponiyada mendan avval hech bir odam jadidchilik harakati haqida kitob yozmagan. 2018-yilda Yaponiyada jadidlar to‘g‘risida kitobim nashrdan chiqdi. Monografiyamda Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, Munavvar qori kabi jadidchilik namoyandalari xususida ma’lumot berilgan”, — dedi tadqiqotchi olim.

Alohida e'tibor qaratish kerakki, jadid bobolarmiz ilmiy merosini o'rganish davlat darajasiga ko'tarilgani muhimdir. Xalqimiz ozodligi va ravnaqi yo'lida jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning merosini yangicha qarashlar asosida tadqiq qilish borasida farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31 avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo'limlari faoliyat olib bormoqda.[4] 2024 yilning ilk kunidayoq ro'yobga chiqqani – «Jadid» gazetasining dastlabki soni chop etilgani tahsinga sazovor bo'ldi.[5]

Ana shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish” to'g'risida qarori o'rinli va dolzarb bo'ldi. Ya'ni, ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqbolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish va faol targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish, shuningdek, 2023 yil 22 dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida bir qator muhim taklif va qarorlar qabul qilindi. Ular:

- Buxoro shahridagi tarixiy maskan — Xo'ja Gulrez ko'chasi 13-uy manzilida joylashgan Hovli Poyon majmuasida Jadidlar merosi davlat muzeyining tashkil etilishi;

- jadidlik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar va tarixiy hujjatlarni aniqlash, to'plash, saqlash, o'rganish, tiklash, nusxalash, e'lon qilish, ular asosida Muzey fondini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratish, shuningdek, madaniy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

- ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqbolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi hisssasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

- jadidlik harakatiga oid noyob kitob, qo'lyozma, arxiv hujjatlari va boshqa materiallarni aniqlash bo'yicha chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish hamda aniqlangan materiallarni raqamlashtirish;

- muzeyga xorijiy davlatlardagi turli arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma'rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish chora-tadbirlar amaliy ahamiyatga ega bo'ldi.[6] Bu kabi xatti-harakatlar o'z navbatida jadid g'oyalarining birlamchi manbalar asosida haqqoniy tahlil qilish hamda hali ochilmagan ma'lumotlarni ilmiy o'rganishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yuqorida keltirilgan jadidlarning merosini o'rganishda Prezident qaror va farmonlarini, dasturlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida O'zR FA huzuridagi Tarix instituti faoliyatiga alohida urg'u qaratmoqchimiz. Tarix institutida 2022 – 2025-yillarda o'zbek tarixi fanida ilk bor “Jadidchilik milliy harakati tarixi”ni tizimli ravishda o'rganilmoqda. Jumladan, o'tgan qisqa davrda 4 ta asar, 1 ta hujjatlar to'plami, 1 ta risola, 110 ta ilmiy va ilmiy ommabop maqola e'lon qilindi, 45 ta teleko'rsatuv, 43 ta radioeshittirish, ijtimoiy tarmoqlarda 60 ta chiqish amalga oshirildi. 7 ta umummilliy ilmiy yig'in o'tkazildi.

Shu o'rinda, 250 dan ortiq jadidlarning hayoti, faoliyati va merosini o'rganilishiga oid barcha ma'lumotlarni o'z ochiga oladigan Jadidlar.uz elektron platformasi yaratildi. Tarix instituti tomonidan olib borilayotgan salmoqli va amaliy tadbirlar xalqimiz, ayniqsa yoshlarga O'zbekiston tarixining jadidchilik bilan bog'liq sahifalarini yanada kengroq o'rganishga, Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun kurashgan qahramon ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirishga hamda o'zimizga xos bo'lgan milliy an'analarimizni teran anglashga xizmat qilib kelmoqda.

Demak, oradan 150-yil o'tib, jamiyatimizda jadidchilik g'oyalari yanada dolzarb hamda davr talabi ekanligining guvohi bo'lib turibmiz. Oradan bir yarim asrdan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa-da, bugungi kunda xalqimiz oldida ayni o'sha davrdagi muammolar borligini ko'rish mumkin. Shu joyda savol tug'iladi, nima uchun aynan jadidchilik g'oyalarini Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan barpo

etish uchun asos sifatida olish zarur? Bu savolga javob berish maqsadida jadidlarning o'tmish tarixiga bir nazar tashlaymiz.

Avvalambor, Turkiston jadidlarining kelib chiqish tarixi e'tiborimizni tortadi. Jadidchilik harakati xalqaro formatdagi jarayon bo'lib, mavjud bo'lgan har bir mintaqada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Jadidlarning asoschisi hamda otasi sifatida XIX asrning 80-yillarida qrim-tatar yozuvchisi, siyosatchi Ismoil Gasprinskiy edi. U ma'rifatparvarlik faoliyatini Qrimda boshlab, "Vaqt" va "Sho'ro" deb atalgan ikkita gazeta tashkil qilgan. Bu gazetalar Qrimdan tashqarida ham keng tarqalib, ta'siri juda katta bo'lgan. U Markaziy Osiyo ziyolilari uchun chin ma'nodagi kashfiyot edi, chunki gazetada nafaqat boshqa davlatlar, mamlakatlar va shaharlar taraqqiyoti, shuning barobarida yangi usul maktablarining ahamiyati xususida axborot berib borilgan, ularda turkiy xalqlarning ma'naviy jihatdan birlashishi zaruriyati targ'ib qilingan. Shuning uchun gazeta sonlari bu yerga olib kelinadigan bo'ldi. [7]

O'rta Osiyoning eng ko'zga ko'ringan jadidlaridan Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy larni aytish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-yilda Rossiyani, xususan, boshqa Sharq mamlakatlarini o'rgandi. O'sha yili Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashdi. Bu paytga kelib, Behbudiyning o'z mablag'i hisobiga ochilgan ko'plab xususiy maktablari bor edi. [8]

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnaliga asos soldi. 1914-yilda "Turon" teatrida sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi. [9]

Bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini ilmiy tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimning asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etish maqsadida Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning muazzam haykali o'rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e'tirof etildi. Iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi mukofot ta'sis qilingani shu yo'ldagi yangi amaliy qadam bo'ldi.

2025-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash maqsadida bir qator chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ular:

- Mutafakkir adibning "Tanlangan asarlar" to'plami, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblari chop etish;

- Mahmudxo'ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" kinoseriali va "Xalq yuragi" badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;

- 2025-yil oktyabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish;

- 2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasini o'tkazish kabi ma'naviy tadbirlar rejalashtirildi. [10] Bu kabi tadbirlar globallashuv jarayonlari avj olgan bir davrda yangi O'zbekiston yoshlarining mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, tarixiy xotiraga hurmat, buyuk allomalarning qoldirgan boy ma'naviy va madaniy merosini yanada kengroq tadqiq qilish hamda olingan tajribani yangicha qarash bilan o'rganish imkoniyatini bermoqda.

Umuman olganda, jadidlar mahalliy va chet tillarni bilishni eng muhim vazifa deb bilishgan. Behbudiy nafaqat arab va fors tillarini, balki rus va Yevropa tillarini ham o'rganish zarurligini

ta'kidlagan. Ular rus tilida gazetalarni o'qib, qiziqarli materiallarni o'zbek tiliga tarjima qilganlar. 1905 yilgi birinchi rus inqilobidan keyin Turkistondagi jadidlar o'z gazetalari hudud xususiyatlarini inobatga olib, o'zbek va tojik tillarida ham chop qila boshladilar. Jadidlarning aksariyati buyuk mutafakkirlarning asarlarini asl nusxada o'qish uchun chet tillarini o'rgangan. Fitratning Volterni asl nusxada o'qiganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan.[11]



Suratda jadidlar. 1920-yil.

Darhaqiqat, o'zbek tomoshabinlari Shekspirni 1930-yillardan tanii boshlangan. 1934-yilda atoqli adib, jadidchilik harakati vakili Abdulhamid Cho'lpon (1898-1938) birinchi marta "Gamlet" tragediyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. XX asrning oxirigacha Shekspir asarlarini tarjima qilish asl nusxadan emas, balki ruschaga qilingan tarjimasi orqali amalga oshirilgan. "Gamlet"ni tarjima qilishda Cho'lpon P.Kanshinning prozaik tarjimasidan foydalangan. [8] "Otello" va "Qirol Lir" asarlari yangi usul (jadid) maktabi bitiruvchisi, shoir G'afur G'ulom (1903–1966) tomonidan tarjima qilingan.

Jadidlar jamiyatni tubdan o'zgartirish sifatida belgilagan ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lim va maorif bo'lib, ularning asosiy maqsadi xalqning yuksak ma'rifatli bo'lishi edi. Buning uchun ular ko'proq "usuli-jadid" ("yangi usul") maktablarini ochishga harakat qildilar. Shu orqali yoshlarda yangi dunyoqarashni shakllantirmoqchi bo'ldilar. Odatda madrasa va maktablarda faqat diniy fanlar o'qitilishini hisobga olib, jadidlar Yevropa modeliga amal qilgan holda, dunyoviy fanlardan arifmetika, geografiya va tarixni ta'limga joriy qildilar. Jadidlar xotin qizlarning bilim olishi lozimligini ham ilgari surib, maktablarda o'g'il bolalar va qizlarni birga o'qitish tashabbusi bilan chiqdilar.

Alohida e'tibor berish kerakki, o'sha davrlardayoq jadidlar diniy aqidaparastlikni tanqid qildilar, eskirgan diniy maktablarni milliy dunyoviy maktablar bilan almashtirishni talab qildilar, ilmfan va madaniyatni rivojlantirish tarafdori bo'ldilar, ona tilida gazetalar chiqarishni, madaniy-ma'rifiy muassasalar ochishni targ'ib qildilar. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi demokratik kuchlarning jipslashuviga olib keldi.

Jadidlarning ta'lim sohasidagi faoliyati va unda yangi usulning joriy etilishi natijasida imtihonli o'quv yili belgilanib, sinf-dars tizimiga o'tish amalga oshirildi. Bundan tashqari, yangi usuldagi maktablarda standart yevropacha o'qitish usullari – partalar, o'zlashtirish jurnallari, stullar, doskalar, o'quvchilarni sinflarga bo'lish, o'qitish vaqtini darslarga bo'lish joriy etildi. Eski usuldagi maktablarda o'quvchilar 3-5-yil davomida, jadidchilik maktablarida esa bir yilda o'qish va yozishni o'rganganlar. O'qitish arab va turkiy tillardan o'zbek tiliga o'tdi, u ham o'quv fani maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, boshqa dunyoviy fanlarni o'rganish ham sezilarli darajada kengaydi. Maktablarda dindan tashqari fors, tarix, geografiya va arifmetika ham o'qitilgan.

Sir emaski, ta'lim bugungi kunda ham har qanday jamiyatning, jumladan, Yangi O'zbekistonning ham modernizatsiya va taraqqiyoti jarayonida muhim o'rin tutadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangi ta'lim siyosati doirasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va kadrlar

tayyorlash darajasini oshirish, ta'lim tizimini jamiyatning zamonaviy talablari va ehtiyojlariga moslashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim yo'nalishlar hisoblanadi.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya va uning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni, har bir inson sifatli ta'lim olish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan farovon va adolatli jamiyat qurish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir. Bu maqsadlarga erishishda esa jadidlarning tajribasi qo'l keladi.

Darhaqiqat, jadidlarning g'oyalari Yangi O'zbekistonni barpo etish kontekstida o'rganish mamlakatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, an'ana va innovatsiyalarni, muammolari va yutuqlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Yangi O'zbekistonni barpo etish va rivojlantirish – tarixiy meros va zamonaviy chaqiriqlar asosida taraqqiyotga intilishni o'zida mujassam etgan jarayondir.

Demak, XIX asrning 90-yillarida bizning mintaqamizda jadidchilik harakati vujudga keldi. Jadidchilik g'oyasi jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan madaniy-ma'naviy qoloqlik, savodsizlik va boshqa kamchiliklarga qarshi turishdan iborat edi. Jadidlar jahon hamjamiyatida insoniyat erishgan yutuqlarni, jahon durdonalarini keng ommaga yetkazish borasida o'z davrining ma'rifatparvarlari, boshqacha aytganda, peshqadamlari bo'lishdi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilar ekanmiz,

Birinchidan, jadidlar o'zlarining faol ijtimoiy faoliyatida xalqlarning uyg'onishi, qoloqlik va jaholatdan xalos bo'lishining yagona yo'li bu ilm-ma'rifat, dunyoviy taraqqiyot yo'li bilan bo'ladi, deb hisoblaganlar. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining[12] 73-maqsadi: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish etib belgilangani bejiz emas. Unda IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda «Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans» shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish davom etadi. Bu esa olimlarning hamkorligini, jadidlar merosini o'rganishda yangi qirralarni ochishga xizmat qiladi.

Strategiyada buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish belgilangan. Buni amalga oshirish maqsadida olimlar oldida yangi tadqiqot va mavzularni o'rganish, zamonaviy O'zbekiston oldida turgan chaqiriq va muammolarni aniqlash va ularni jadidchilik tamoyillari asosida yechish vazifasi ko'ndalang turibdi. Buning uchun esa jadidlarning g'oyalari va faoliyatini Yangi O'zbekiston sharoitida yanada chuqurroq o'rganish va tahlil qilish mamlakatimizning tarixiy merosi va uning zamonaviy jamiyatga ta'sirini yanada kengroq anglashga yordam beradi, modernizatsiya, ta'lim va madaniy xilma-xillik ruhida davlatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, jadidlar yaratgan yangi usul maktablari, teatrlar, kutubxonalar, nashriyotlar, gazeta va jurnallar, yoshlarni chet tillarni o'rganishga qiziqtirish hamda rivojlangan davlatlarga o'qishga yuborish tajribasi muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'z istiqboli va kelajagini o'ylagan davlat borki, islohotlar avvalini ta'limdan, yosh avlod kamolotiga e'tibordan boshlaydi. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistondagi hozirgi yangilanishlar jarayonida ta'lim ravnaqi yo'lida jadid g'oyalarining o'rni tobora muhim bo'lmoqda. Bugungi kunda bu g'oyalarning amaliy natijalarini ko'rish mumkin. Masalan, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablar yaratildi, Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi, ta'lim dasturlari eng ilg'or mamlakatlar tajribasiga moslashtirilmoqda, darsliklar yangilanilyapti, maktablarga zamonaviy jihozlar olib berilyapti. Oxirgi 7-yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun mablag' 7 karra oshirilgan bo'lsa, joriy yilda 60 trillion so'm ajratilgan.

Hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati ham kengaytiriladi. Ulardagi professor-o'qituvchilar AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniyaning ilg'or dasturlari asosida qayta tayyorlanadi. Shu bilan birga, o'rta ta'limdagi 17 ta fanning har biri bo'yicha alohida tayanch maktablari bo'ladi. Tayanch maktab o'qituvchisi Malaka oshirish markaziga kelib, o'z yo'nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. Keyin bu trenerlar o'ziga birlashtirilgan hududda 25 nafar yetakchi o'qituvchini o'qitadi. Yetakchi o'qituvchilar esa o'z maktabidagi boshqa muallimlarni malakasini oshirib boradi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni nufuzli xorijiy universitetlarda o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratadilar. Shu maqsadda "Prezident iqtidorli farzandlari milliy dasturi" boshlanadi, Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etiladi. Unga 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, reytingi yuqori oliygohlarga maqsadli tayyorlanadi. Bundan tashqari, Prezident va ixtisoslashgan maktablardan 208 nafar maslahatchi umumta'lim maktablariiga birlashtiriladi. Bu maslahatchilar maktablardan har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchini seleksiya qilib, AQSHning Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi "Pechak ligasi" oliygohlariga tayyorlaydi [13].

Uchinchidan, jadidchilik g'oyalari, jumladan, gender tenglik, inklyuzivlik va xilma-xillikni hurmat qilish tamoyillari fuqarolik jamiyatining shakllanishiga, fuqarolarning davlat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishiga hamda jamoatchilik nazoratining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun jadidchilik harakatida xotin-qizlarning o'rni, ularning maorif va milliy taraqqiyotga qo'shgan hissasiga ham e'tibor qaratish lozim. Bu esa Yangi O'zbekiston konsepsiyasida asos qilib olingan jamiyatning barcha qatlamlari uchun tenglik va ta'lim g'oyalarini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Darhaqiqat, bugungi globalashuv jarayonlari avj olgan davrda jadidchilikning sinovdan o'tgan amaliy tajribasi Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishning muhim ma'naviy-nazariy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Inson qadr-qimmatini va uning manfaatlari hamma narsadan ustun turadigan Yangi O'zbekistonda adolatli, erkin va farovon jamiyat, farovon hayot, chinakam xalqchil davlat barpo etish yo'lidagi bugungi islohotlarimiz jadidlarning ezgu g'oya va dasturlari bilan to'la hamohangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.Ibragimov. Jadidchilik harakati va uning o'lka hayotiga ta'siri// <https://cyberleninka.ru/article/n/zhadidchilik-arakati-va-uning-lka-ayotiga-tasiri/viewer>.
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yig'ilishidagi ma'ruzasi. <https://www.gazeta.uz/uz/>.
3. Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari.//11.12.2023. <https://daryo.uz/k/2023/12/11/jadidchilik-turkistonning-umum-harakatidirtoshkentda-xalqaro-jadidchilik-anjumani-otkazilmoqda>.
4. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga Prezident Sh.Mirziyoyevning tabrik so'zi // <https://yuz.uz/news/jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferentsiya-ishtirokchilariga>.
5. Saidov A. Ma'rifat yo'li. // <https://parliament.gov.uz/oz/news/marifat-yoli6.01.2024> (murojaat kuni 27.08.25).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Toshkent, 2024 yil 30 may, PQ-201-son.
7. Sattorov D. Jadidlarning g'oyaviy asoslari, yutuq va xatolari. Central Asian Analytical Network Mart10,2022//<https://www.uzanalytics.com/tarix/10076> text(data obrasheniya 28.08.25).
8. Почему современному Узбекистану так нужны джадиды XX века? <https://old.hook.report/2020/06/djadidi/>.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)// <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/>
10. Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 03.01.2025//<https://president.uz/uz>.

11. Abdurauf Fitratning ta'lim tarbiya haqidagi qarashlari (axlokiykarashlari)//<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/abdurauf-fitratning-talim-tarbiya-a-idagi-arashlari-ahlokiy-karashlari> (murojaat kuni 28.08.25).
12. 2022 — 2026 YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING STRATEGIYASI//
https://www.president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144.
13. Maktab ta'limidagi islohotlarning yangi bosqichi/ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi/15.05.25//
https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi_720360?q=%2Fposts%2Fmaktab-talimidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi_720360.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI
OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI
YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.**

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729
“СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ
ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ
ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING
A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE
NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000